Shuningdek rivojlangan ta'lim tizimiga ega bo'lgan Norvegiyada ta'lim rahbarlarining faoliyatini taqqoslash tufayli, ta'limdagi innovatsiyalarning roli va ahamiyati tobora yaxshilanayotgani butun dunyo olimlari tomonidan qayd etib o'tilmoqda.

Benchmarking loyihasining joriy etilishi, universitet rahbarlarining nuqtai nazarini o'zgartirish orqali, ularning yetakchilik mahoratini oshirishi ko'zda tutilgan.. Bundan tashqari bu jarayon ularga fikr almashish, innovatsion faoliyatda ishtirok etish va yetakchilik dasturlarida hamkorlik qilish imkonini berdadi. Shu kabi innovatsion holatlar natijasida o'qitish va yangi istiqbollari universitet rahbarlarining innovatsiyalari va yangilklarga ochiqqligini oshiryapti. Yetakchilik va ta'limni boshqarish innovatsiyalarini targ'ib qiluvchi strategiyalar barcha oliy ta'lim rahbarlari uchun birdek foydalidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'limni boshqarish va yetakchilik sohas innovatsiyalarga chambarchas bog'liqdir. OTMlarda transformatsion yetakchilik bilim va tadqiqotlarning bosh kalitidir. Bundan tashqari, ta'limni boshqarishda axborot tizimlari kabi texnologiyalardan foydalanish innovatsiyalarni takomillashtirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qayd etiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Al-Husseini, S., El Beltagi, I., & Moizer, J. (2019). Transformational leadership and innovation: the mediating role of knowledge sharing amongst higher education faculty. *International Journal of Leadership in Education*, 1- 24. <https://doi.org/10.1080/13603124.2019.1588381>
2. Alonderiene, R., & Majauskaite, M. (2016). Leadership style and job satisfaction in higher education institutions. *International Journal of Educational Management*, 30, 140-164. <https://doi.org/10.1108/IJEM-08-2014-0106>

3. To‘ychiyeva N. Elektron Ta‘lim Tizimining Afzalliklari Va Kamchiliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 40-41.
4. Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta‘lim metodologiyasi rivojlantirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 29-31.



## OLIV TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

**To'ychiyeva Nodira G'ulom qizi,**

UZMUJF, assistent

E-mail: [nodira070495@gmail.com](mailto:nodira070495@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oliy ta'limga innovatsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarishning asosiy konsepsiyalari hamda ularning asoslarini ishlab chiqish, oliy ta'limga innovatsiyalarni yanada rivojlantirish va takomillashtirish, oliy ta'lim, fan sohasidagi innovatsiyalar yo'nalishlarini belgilash, boshqarishning xususiyatlari yoritib berilgan. Maqolada taklif etilgan oliy ta'lim innovatikasi ta'lim tizimi bilan bog'liq muassasalar, ilmiy muassasalar, tashkilotlar va boshqaruv organlarining innovatsion faoliyatini amalga oshirish, boshqarishning nazariy masalalari, amaliyotini o'rganadi va umumlashtiradi.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim innovatsiyalari, oliy ta'limning innovatsion rivojlanishi, akademik kapitalizm, tadbirkorlik universiteti, platforma.

## THE MAIN CHARACTERISTICS OF INNOVATION MANAGEMENT IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

**Abstract:** In this article, the main concepts of attracting innovations to higher education and their management, as well as the development of their foundations, further development and improvement of innovations in higher education, defining the directions of innovations in the field of higher education and science, and the characteristics of management are highlighted. The proposed higher education innovation in the article studies and summarizes the theoretical issues and practice of implementing and managing innovative activities of institutions, scientific institutions, organizations and management bodies related to the educational system.

**Key words:** higher education innovatics, innovative development of higher education, academic capitalism, entrepreneurial university.

Bundan bir necha yillar muqaddam oliy ta'lim va fan jamiyatning intellektual faoliyatining notijorat sohasiga tegishli bo'lib, butun insoniyat manfaati uchun bilimlarni topish, yaratish va tarqatish uchun xizmat qilgan. Bundan tashqari, akademik kapitalizm sharoitida oliy o'quv yurtlari (OTM) va ilmiy muassasalar (IM) qat'iy bozor iqtisodiy qoidalariga ega bo'lgan ta'lim va ilmiy xizmatlar bozorining ishtirokchilariga aylandi. Akademik kapitalizmning paydo bo'lishi va inson faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-gumanitar sohasiga ta'siri, uning oliy ta'lim sohasida innovatsion faoliyatning paydo bo'lishi hamda tarqalishiga ijobiy ta'siri haqida juda ko'p foydali ma'lumotlarni o'rganib chiqildi va tahlil qilindi. Ammo bugungi kunda fan, mualliflar, yangi ilmiy va amaliy yo'nalishlar - oliy ta'lim innovatsiyasini yaratish, joriy etishni taklif qilyapti. Oliy ta'lim tizimida innovatsiyalarni boshqarish ta'lim va fan sohasidagi innovatsion o'zgarishlar, turli mamlakatlar fan hamda ta'lim tizimlarini ya'nada ommalashtirish maqsadida ularni har tomonlama o'rganishni tizimlashtirishga mo'ljallanyapti.

"Innovatsiya - bu ko'p bosqichli jarayon bo'lib, unda tashkilotlar o'z bozorlarida o'zlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish, raqobatlash va farqlash uchun yangi g'oyalar, takomillashtirilgan mahsulotlar, xizmatlar yoki jarayonlarga aylantiradi". Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti - rahbariyatining ta'rifiga asoslanib, dasturiy ta'minot sanoati innovatsiyalarni qanday ta'riflaganligi to'g'risida quyidagi ta'rif eng keng qamrovli deb topildi:

Innovatsiya - bu ishlab chiqarish yoki joriy etish, o'zlashtirish va ulardan foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar, xizmatlar va bozorlarni yangilash hamda kengaytirish, yangi ishlab chiqarish usullarini ishlab chiqish, innovatsion boshqaruv tizimlarini yaratishdir. Bu ham jarayon, ham natijadir. "Innovatsiyaning ikkita asosiy o'lchovi (ya'ni, innovatsiya firma uchun yangimi, bozor uchun yangimi, sanoat uchun yangimi yoki dunyo uchun yangimi) va turlari mavjud. Oliy ta'lim va fandagi innovatsiyalar ulkan o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Bular quyidagi turdagi innovatsiyalar bo'lishi mumkin:

- iqtisodiy va bozor;
- texnologik;



- tashkiliy;
- tarkibiy va pedagogik;
- ta'lim va pedagogik.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ta'lim inson hayotining barcha sohalari bilan bog'liq, chunki savodli va ilmi odamlar hayot uchun zarurdir. Shunday qilib, oliy ta'lim innovatsiyasi insoniyatning xilma-xil bilimlari tizimidagi eng ilmiy va amaliy yo'nalishlardan biridir. Oliy ta'lim va fan sohasidagi innovatsion faoliyat butun ta'lim sohasida ham jiddiy innovatsion o'zgarishlarga olib keladi. Har bir mamlakatda oliy ta'lim va fanni innovatsion boshqarish sohasidagi davlat tashabbuslari ushbu sohadagi innovatsiyalarning ijtimoiy, notijorat komponentini kuchaytirishga qaratilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Itbach, F. (2008) The complex roles of universities in the period of globalization. Higher Education in the World 3,pp. 5–14. URL: [https://www.researchgate.net/publication/277128834\\_The\\_complex\\_roles\\_of\\_universities\\_in\\_the\\_period\\_of\\_globalization/stat](https://www.researchgate.net/publication/277128834_The_complex_roles_of_universities_in_the_period_of_globalization/stat)
2. Baregheh, A., Rowley, J., & Sambrook, S. (2009) "Towards a multidisciplinary definition of innovation". Management Decision. 47(8): 1323–1339. URL: [https://www.researchgate.net/publication/41104662\\_Towards\\_a\\_Multidisciplinary\\_Definition\\_of\\_Inno](https://www.researchgate.net/publication/41104662_Towards_a_Multidisciplinary_Definition_of_Innovation)
3. To'ychiyeva N. Elektron Ta'lim Tizimining Afzalliklari Va Kamchiliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollor. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 40-41.
4. Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta'lim metodologiyasi rivojlantirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollor. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 29-31.

## BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARI

**Mahmudova Namuna**

TDPU Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi  
magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston respublikasi ta‘lim tizimiga xalqaro baholash amaliyotini tatbiq etilishi yuzasidan qabul qilingan qaror va farmonlar, shuningdek xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ishlari haqida qisqacha ma‘lumot keltirib o‘tilgan. Bundan tashqari, boshlang‘ich ta‘limda xalqaro baholash dasturlarining qo‘llanishi haqida ham to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston respublikasi ta‘lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, "Xalq ta‘limi tizimini isloh qilish to‘g‘risida"gi Prezident farmoni, Xalqaro baholash dasturlari, PISA, TIMSS, PIRLS va h. k.

## INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS IN PRIMARY EDUCATION

**Abstract:** This article provides brief information about the decisions and decrees regarding the implementation of international assessment practices in the educational system of the Republic of Uzbekistan, as well as the preparatory work for international assessment programs. In addition, the use of international assessment programs in primary education is also discussed.

**Keywords:** the concept of development of the education system of the Republic of Uzbekistan until 2030, the Presidential decree "On reforming the public education system", international assessment programs, PISA, TIMSS, PIRLS, etc.

O‘sib kelayotgan yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta‘limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida yurtimizda so‘nggi yillarda

qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”<sup>1</sup>gi PF-5538-son Farmonini misol qilib keltirish mumkin. Unga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. 2030- yilga qadar PISA tadqiqoti bo‘yicha O‘zbekistonni 30 ta ilg‘or mamlakatlar qatoriga kiritish rejasi qo‘yildi hamda uni amalga oshirish chora-tadbirlari ishlab chiqildi.

Xalqaro baholash dasturlari orasida PIRLS hamda TIMSS tadqiqotlari boshlang‘ich sinflarning 4- sinflari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bugungi kunda O‘zbekiston ham ushbu dasturlarda ishtirok eta boshladi. Tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rish birinchi sinfdanoq boshlanib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda g‘oyat muhim ahamiyatga ega.

PIRLS – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish darajasini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. Boshqacha qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma’lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o‘qish va o‘qitishni yaxshilash uchun ta’lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma’lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir. <sup>2</sup>

TIMSS–maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring.

Bu tadqiqot o‘quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha boshlang‘ich maktabning 4-sinfi va tayanch maktabning 8- sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish darajasini dunyoning turli mamlakatlarida qiyosiy o‘rganishni maqsad qilib qo‘ygan va olingan natijalarga muvofiq har bir mamlakatning ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari va yutuqlarini e‘tirof etadi.

Ushbu tadqiqotlarda ishtirok etishning O‘zbekiston uchun ahamiyati quyidagilardan iborat: Ta’lim tizimini tubdan isloh qilish , pedagog kadrlar tayyorlash

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”<sup>1</sup>gi PF-5538-son Farmoni.2018-yil 5-sentabr.

<sup>2</sup> Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash.*Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma.* «Sharq» nashriyot-matbaa Aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent – 2019

va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo'llaniladi.

- Tadqiqot natijalari ta'lim tizimidagi yutuq va kamchiliklarni baholash imkonini beradi.

- Xalqaro dasturlar ichki nazorat sifatini oshirishga xizmat qiladi,

- Xalqaro baholash tadqiqotlari materiallari asosida yangi nazorat materiallari yaratish va qo'llash imkoniyatini yaratadi.

Boshlang'ich ta'limda xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko'rishning zaruriyligi nimadan iborat?

- Xalqaro tadqiqotlar ta'lim sifatini baholashga qaratilganligi hamda xalqaro ahamiyatga ega ekanligi bois, boshlang'ich ta'lim tizimiga yangicha yondashuvni taqozo etadi.

- PIRLS tadqiqotiga tayyorgarlik ko'rish jarayonida nafaqat matn savodxonligiga, balki uni izchil tahlil qila olish ko'nikmalarini shakllantirish imkoni paydo bo'ladi.

- TIMSS dasturi orqali esa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik hamda mantiqiy fikrlash doirasini o'stiruvchi topshiriqlar tizimi ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish zaruriyati yuzaga keladi.

- Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarli natijasida xalqaro talablarga javob bera oladigan yosh avlodni tarbiyalash hamda dunyo ta'lim tizimida o'z mavqeiga ega bo'lish imkoni yuzga keladi.

Xalqaro tadqiqotlar natijasida yuzga keladigan imkoyatlarni hisobga olgan holda 2018-yil 8- dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi tadqiqotlarni tashkil etish chora- tadbirlari to'g'risida" gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra:

“ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazini ( keyingi o'rinlarda Milliy markaz deb ataladi) tashkil etish to'g'risidagi takliflar”<sup>3</sup>ga rozilik berildi. Bugungi kunda ushbu

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi tadqiqotlarni tashkil etish chora- tadbirlari to'g'risida" qaror. 2018-yil, 8-dekabr.

markaz tomonidan xalqaro dasturlarga tayyorgarlik ko‘rish maqsadida bir necha metodik qo‘llanmalar, shuningdek, mashq daftarlari ishlab chiqilgan bo‘lib, ulardan ta‘lim tizimida keng miqyosda foydalanilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib, bu orqali mamlakatning jahon ta‘lim tizimi reytingidagi o‘rnini yuqori bosqichga ko‘tarish imkoni yaratiladi. Bundan tashqari, tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rish jaryonida o‘quvchilarning matnni tushunish, savodxonlik, matematik va tabiiy bilim va ko‘nikmalari bilan bir qatorda, chuqur tahlil va mustaqil munosabat, mantiqiy izchil tafakkur shakllanishiga erishish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta‘limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoni. 2018-yil 5-sentabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi tadqiqotlarni tashkil etish chora- tadbirlari to‘g‘risida” qaror. 2018-yil, 8-dekabr.

3. Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma. «Sharq» nashriyot-matbaa Aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent – 2019

### **INTERNET MANBALARI:**

1. [www. ziyounet. uz](http://www.ziyounet.uz)
2. [www. uzedu. uz](http://www.uzedu.uz)
3. [www. tdi. uz](http://www.tdi.uz)

## YOSHLARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH

**Ergashev Hamid O‘ktam o‘g‘li**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti

O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili ta’limi

E-mail: [Ergashevhamid796@gmail.com](mailto:Ergashevhamid796@gmail.com)

**Abstrakt:** This article includes the role of "Healthy lifestyle" in human life its tasks and health, solutions to various problems, and important practical issues.

**Key words:** Healthy lifestyle, hygiene, hygienic behavior, genetic factor, environment, Health Organization, cardiovascular disease, diabetes, Purdue University, physical activity.

Bugungi kunda dolzarb muammolardan biriga aylangan, muhim amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalardan biri bu - "Sog‘lom turmush tarzini yanada takomillashtirish"dir.<sup>4</sup> "Sog‘lom turmush tarzi" - bu sog‘liqni saqlash va mustahkamlashga, ish qobiliyatining yuqori darajasini ta’minlashga, faol uzoq umr ko‘rishga qaratilgan, ilmiy asoslangan tibbiy va gigienik me’yorlarga asoslangan gigienik xulq atvor, ya’ni odamlarning sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan turmush tarzi. Sog‘lom turmush tarzining asosiy aspektlari:

- jismoniy tarbiya va chiniqish;
- muvozanatli ovqatlanish;
- odamlar o‘rtasidagi uyg‘un munosabatlar;
- to‘g‘ri jinsiy aloqa;
- ish va turmush tarzida shaxsiy gigiena va ma’suliyatli gigienik xatti-harakatlar;
- yomon odatlarga salbiy munosabat.

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 30.10.2020 yildagi PF-6099-son Qarori

Sogʻlom turmush tarziga rioya qilish barcha insonlarga taalluqlidir: ham sogʻlom, ham sogʻligʻida ayrim nuqsoni boʻlganlarga. Insonning oʻzi sogʻlom turmush tarziga rioya qilish orqali sogʻligʻini mustahkamlashi mumkin, lekin tana oʻsishi va qarishi bilan zarur harakatlar oshib boradi. Afsuski, sogʻlik, u yoki bu maqsadga erishishning muhim hayotiy ehtiyoji sifatida, qarilik yaqin haqiqatga aylanganda, odam tomonidan anglab yetiladi.<sup>1</sup>

Inson salomatligi koʻp omillarga va aksar hollarda insonning turmush tarziga bogʻliq:

- genetik omillar - 15-20% ;
- atrof-muhit holati - 20-25% ;
- tibbiy taʼminot - 10-15% ;
- odamlarning yashash sharoitlari va turmush tarzi - 50-55 % .

Sogʻlom turmush tarzi, odatiy hol boʻlib qolgan koʻplab yoqimli hayot sharoitlaridan voz kechishni ( ortiqcha ovqatlanish, qulaylik, spirtli ichimliklar va h.k.) va aksincha, ularga oʻrganmagan odam uchun doimiy va muntazam zoʻriqishlarni va qattiq cheklovlar mavjud boʻlgan turmush tarzini koʻzda tutadi. Sogʻlom turmush tarziga oʻtishning birinchi davrida odamning intilishlarini qoʻllab-quvvatlash, uning sogʻligʻi, funksional koʻrsatgichlaridagi ijobiy oʻzgarishlarni koʻrsatish uchun zarur maslahatlar berish oʻta muhimdir.

XXI asr fan va texnika asridir. Jamiyatimizda fan-texnikaga boʻlgan eʼtibor, tobora ortib bormoqda. Shunday ekan, bugungi kunda insonlar piyoda emas, aksincha, transport vositalaridan koʻproq foydalanadilar. Transport vositalari jamiyatimizda koʻp boʻlgani maʼqul, ammo, ulardan chiqayotgan gaz va zaharli moddalar, ekologiyaga jiddiy zarar keltirayotganligi, achinarli holatlardan biriga misol boʻla oladi. Agarda hayotimiz davomida transport vositalaridan emas, balki, velosipedlardan koʻproq foydalansak, nafaqat oʻzimizning sogʻligimiz, shuningdek, ekologiyadagi turli muammolar yechimiga oz boʻlsada, ijobiy natijani olib kirgan boʻlardik.

Darvoqe, bu masala yuzasidan, prezidentimiz tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ham yoʻq emas albatta. Maʼlumotlarga qaraganda, Yaponiya mamlakati xalqlari uzoq umr koʻrishar ekan. Buning sababi nimada deb oʻylaysiz?

Albatta, "Sogʻlom turmush tarzi"ning toʻgʻri yoʻlga qoʻyilganligidadir. Ular koʻproq transport vositalaridan emas, velosipedlardan foydalanadilar. Shu sababli, "Sogʻlom turmush tarzi"ni takomillashtirish, hamda koʻproq umr koʻrish Yaponiya mamlakatida oʻz aksini topgan. Bugungi kunga kelib, prezidentimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, "Sogʻlom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish boʻyicha" chora-tadbirlar, aholining jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shugʻullanishi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, piyodalar va velosiped yoʻlaklarini tashkil etish boʻyicha ishlab chiqilayotgan loyihalari, biz yoshlarni yanada quvontiradi. Xoʻsh, nima uchun odamlar yoshligidan yuqumli boʻlmagan kasalliklarga chalinmoqda?

Sababi texnologiyalarning rivojlanishi, turmush tarzining oʻzgarishi bilan odamlarning harakatlanishi va jismoniy mehnat bilan shugʻullanishi kamaydi, chekadigan va spirtli ichimlik ichadigan insonlar koʻpaydi, tarkibida yogʻ, qand va tuz miqdori yuqori boʻlgan nosogʻlom oziq-ovqat mahsulotlari isteʼmoli koʻpaydi. Shuningdek, aholining ovqatlanish odatlari oʻzgardi, jumladan, sabzavot va mevalarni yetarli darajada isteʼmol qilmaslik holatlari ham koʻpaydi. Bu esa oʻz navbatida, turmush tarzining oʻzgarishi, tana vaznining ortishi, semizlik, qonda xolesterin miqdorining oshishi va oqibatda, yuqumli boʻlmagan kasalliklarning rivojlanishiga sabab boʻlmoqda.<sup>5</sup>

Yuqumli boʻlmagan kasalliklar butun dunyoda oʻlim holatlarining asosiy sababchisi hisoblanadi. Jahon sogʻliqni saqlash tashkilotining maʼlumotlariga koʻra, 2016-yilda dunyo boʻyicha 40 million oʻlim holati yuqumli boʻlmagan kasalliklar tufayli yuz bergan boʻlib, bu barcha oʻlimning 70 foizini tashkil etadi. Achinarlisi, kelgusida dunyoda bu kasalliklardan vafot etganlar sonining yanada koʻpayishi kutilmoqda. Jahon sogʻliqni saqlash tashkilotining maʼlumotlariga koʻra, sogʻlom turmush tarziga rioya etilsa, 80 foiz yurak-qon tomir, qandli diabetning 2 turi va 40 foiz oʻsma kasalliklarining oldini olish mumkin ekan.<sup>6</sup>

<sup>2</sup> Sogʻliqni saqlash vazirligi Jamoatchilik bilan aloqalar boʻlimi

<sup>6</sup> Oʻzbekiston Qizil Yarim Oy Jamiyati



Sogʻlom boʻlishni xohlaysizmi- unda pedalni aylantiring! Purdue universiteti (AQSH) olimlari muntazam velosiped haydash yurak xastaliklari xavfini 50 foizga kamaytirishini isbotladi. Britaniya yurak jamgʻarmasi maʼlumotlariga koʻra, agar odamlar sogʻlom boʻlsa, har yili 10 000 ga yaqinroq yurak xurujining oldini olish mumkin. Haftada bir necha oʻnlab kilometr velosiped haydash, yurak xastaligi xavfini ikki barobarga kamaytiradi. Velosiped nafaqat vazn yoʻqotish va yaxshi jismoniy shaklga ega boʻlish, balki sogʻligingiz va immunitetingizni mustahkamlash uchun ajoyib imkoniyat. Jismoniy faollik insonga uzoq umr, salomatlik, sogʻlom asab tizimi, yaxshi qomat va yosh terini saqlab qolishni taʼminlaydi.

Xulosa oʻrnida shuni taʼkidlash joizki, rivojlangan jamiyatda aholining sogʻligʻini saqlash har bir mamlakatda ustuvor vazifa boʻlishi kerak. Bu ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik sohalarda davlatning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Sogʻliqni saqlash madaniyatini shakllantirishda, zamonaviy olimlarga juda koʻp vaqt va energiya beriladi. Ular xalqning salomatligini, sogʻlom turmush tarzi bilan chambarchas bogʻliqligiga ishonadilar. Salomatlik- hayotimizning eng muhim tarkibiy qismidir. Biz uni hech qanday pulga sotib ololmaymiz. Shunday ekan, sogʻliq bu- muvaffaqiyat sari tashlangan birinchi qadam. Bu oʻziga ishonch, chiroyli koʻrinish, jismoniy kuch va har qanday tahdidlardan himoyalanişdir. Unutmang! Sogʻlom turmush tarzi, bu - kuch-quvvat va salomatlik garovidir. U insonning turli qirralarini rivojlantirish, muvaffaqiyatga erishish garovi hamdir. Sogʻlom turmush tarzi qoidalariga rioya etgan odam oilasi, mehnat jamoasi, umuman, jamiyatda oʻz oʻrniga ega boʻladi. Sogʻlom turmush tarzi qoidalari bir-birini qoʻllab-quvvatlaydi, biri ikkinchisiz sodir boʻlishi amrimahol. Ularni ertaga qoldirmasdan, hoziroq amalga oshirishni boshlash bilan sogʻlom va baxtli hayot sari ilk qadamlarimizni tashlagan boʻlamiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.10.2020 yildagi PF-6099-son Qarori.
2. Sogʻliqni saqlash vazirligi Jamoatchilik bilan aloqalar boʻlimi
3. Oʻzbekiston Qizil Yarim Oy Jamiyati

## MAMLAKATIMIZ QISHLOQ XO‘JALIGI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA SALBIY TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

**Ochildiyeva Naima Mengziya qizi**

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti talabasi.

### ANNOTATSIYA

Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti mamlakatlarning oziq-ovqat xavfsizligiga bo‘lgan talabini maksimal darajada qondiradi. Iqtisodiyoti rivojlangan soha borki, unda aholi daromadlarini oshishi hamda mamlakat rivoji yuksalishi namoyon bo‘ladi. Agar bunga salbiy ta’sir etuvchi omillar bo‘lsa uni strategik loyihalar ishlab chiqib bartaraf etish davr talabi hisoblanadi.

**KALIT SO‘ZLAR:** Ekstensiv, intensiv, pedsidlar, dehqon xo‘jaligi,

### ANNOTATION

Agricultural economy maximally satisfies the demand for food security of the countries. There is a sector with a developed economy, which shows an increase in the income of the population and a rise in the country’s development. If there are factors that have a negative effect on this, it is the demand of the time to develop strategic projects and eliminate them.

**KEY WORDS:** Extensive, intensive, pesticides, agriculture,

Qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanadigan mamalakatlarning ko‘p qismida pedsidlar, o‘g‘itlar va boshqa zaharli moddalardan noto‘g‘ri foydalanish natijasida toza suv va tuproqning zaharlanishi ro‘y bermoqda. Natijada yerlarning eroziyaga uchrab qishloq xo‘jaligida unumdor yerlarning qisqarishiga sabab bo‘lmoqda. Bu muammolar mamlakatimiz qishloq xo‘jaligini ham chetlab o‘tmayapdi. Sohada shug‘ullanayotgan

fermer va dehqon xo‘jaliklari faoliyatida iqtisodiy samaradorlikni pasaytirib yubormoqda.

Bunda qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanadigan aholining yerdan iqtisodiy samaradorlik olishda ularning yerdan foydalanish ko‘nikmalari yetarlicha emasligi natijasida yerga hosil ekishda sarf xarajatlarni to‘g‘ri taqsimlab, kelajakda olinadigan foydani nazarda tutmay, keragidan ortiq moliyaviy isrofgarchilikka yo‘l qo‘yilmoqda.

Ayni damda qishloq xo‘jaligi rivojlangan mamlakatlar deyarli tomchilab sug‘orish va shu tizim orqali ekinlarni o‘g‘itlash, yerning sho‘rlanishini oldini olib, suv va o‘g‘itlarning iqtisodiy tejamkorlik bilan yuqori foyda olayotgan davrda bizning fermer va dehqon xo‘jaliklari suv va o‘g‘itlarni zovurlarga oqizishi natijasida ortiqcha sarf xarajatlar oshib bormoqda.

Mamlakatimiz yerlarining ko‘pgina qismida **ekstensiv** (sifatga etibor bermay, faqat miqdorni oshirishga, hajmni kengaytirishga qaratilgan dehqonchilik); usulida yerdan foydalanish davom etmoqda. Ammo hozirgi zamon talabi va iqtisodiy samaradorlikka erishish yo‘li **intensiv** (yer maydonini kengaytirmay sarf xarajatlarni ishchi kuchini tejash orqali rejali foyda olishga qaratilgan dehqonchilik); qishloq xo‘jaligini rivojlantirishdir. Bu borada **Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 6 sentabr kuni qishloq xo‘jaligini 2020-2030 yillarda rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazildi**. Unda Keyingi yillarda qishloq xo‘jaligini isloh qilish va bozor mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirildi. Davlat xarid narxlari qariyb 3 barobarga ko‘paytirilgani natijasida manfaatdorlik oshdi. Paxtachilik va g‘allachilik hashar emas, chinakam daromad manbaiga aylandi.

Yangi texnologiya va innovatsiyalarni joriy qilish, mehnat unumdorligi va ish haqini oshirish maqsadida 76 ta paxta-to‘qimachilik klasterlari tashkil etildi. Sohaning eksport salohiyatini oshirish va qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish masalalariga alohida ahamiyat qaratilib, bu boradagi jahon tajribasi tahlil qilindi.

Masalan, Turkiyada 1 gektar yerdan 2 ming dollarlik, Misrda 8 ming dollarlik, Isroilda 12 ming dollarlik mahsulot yetishtiriladi. O‘zbekistonda esa bu

ko'rsatkich 300 dollardan oshmayapti. Doim bir xil standartdagi tovar yetkazib berish yo'lga qo'yilmagani sababli mahsulotlarimiz tashqi bozorda raqobatlasha olmayapti, deb ta'kidlaganlar.

Bunda qishloq xo'jaligi bilan band bo'layotgan aholi qatlaminin ko'p qismi oliy ma'lumotli bo'lmaganligi, sohaga ilmiy yondashuv yetarli emasligi tufayli malakali kadrlar tayyorlash islohatlarini amalga oshirish maqsadida fermer va dehqon xo'jaligida faoliyat yurituvchi aholini o'qitish, qayta tayyorlash va iqtisodiy foyda olish ko'nikmasini shakllantirish uchun qishloq xo'jaligiga ixtisoslashtirilgan institutlardan tashqari maktab darsliklarida yuqori sinflar uchun "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti" fanini kiritish orqali, kelajakda fermer va dehqon xo'jaliklari hodimlarining iqtisodiy bilim ko'nikmalarini oshirib, mamlakatimiz qishloq xo'jaligi bilan band bo'lgan aholi qatlaminin iqtisodiy manfaatlarini oshirishga erishish mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOT VA INTERNET SAYTLARI.**

1. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti N.J.Nurmatov, A.A.Avliyaqulov.
2. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti O'.P.Umurzoqov, A.J.Toshboyev, J. Rashidov, A.A.Toshboyev,
3. <https://www.uzavtoyul.uz>
4. <https://lex.uz>



## THE CRITICAL PERIOD HYPOTHESIS AND ITS INFLUENCE ON SECOND LANGUAGE ACQUISITION

**Murodova Sevara**

English teacher at Tashkent region Law school

**Annotation.** This article discusses about critical period hypothesis in second language acquisition. The factor of age and Critical Period Hypothesis have long been disputable issues in language teaching and linguistics. The first language acquisition is obtained during the certain period after birth until one reaches puberty.

**Key words:** approach, technique, method, teaching skills, audience, elements of language teaching, critical period hypothesis, objectives, syllabus, criteria, linguistic and subject matter, separate methods, definable methods, discrete methods, pre-programmed materials, methodology.

When we connect the theory with the second language acquisition, it becomes even more arguable. It was believed that language acquisition can be more difficult and rarely perfect after the certain age, while later researches do not opine to this idea, but defines that hypothesis is related to only for one's mother tongue. Learning trajectories of younger and older learners are different. Older learners learn the language explicitly; therefore, their learning is faster than younger ones' acquisition. However, older learners meets with the fossilization, which hinders them to develop. It is vitally important to compare and contrast the meaning and form of the phrases such as "language learning" and "language acquisition", "critical period" and "non-critical period", "second language" and "foreign language" in order to investigate the issue and find appropriate evidences. The study on this issue began in 1967, when Lenneberg conducted research on the child's developmental language learning by connecting this process with developmental biology. As "the father" of the Critical Period Hypothesis was Lenneberg, it is apparent to begin the review with his ideas. Lenneberg defined

human being as “biological species” and focused on six main characteristics of language to connect these two issues. Those qualities include presence of language behavior in all cultures, its connection to the age, unique acquisition system for every child, having permanent operating system. The scholar’s main concern was child’s developmental stages of language acquisition by focusing mostly on biological aspects. Language development of a child is relatively more connected with motor milestones than age. As soon as the child achieves motor development, language milestones start to appear. The nature of the language is an important tool to analyze child’s acquisition. Many of the well-known scholars argue that the absence of speech in animal world is only due to their anatomical structure. However, Lenneberg connects this issue with discourse understanding of human being, as he noted, “understanding involves seeing the basis on which objects are categorized, thus enabling a child to name an object correctly that has never seen before”. Since Lenneberg linked language acquisition with biological aspects, he defined critical period for language acquisition focusing on this issue. The left part of the brain takes the dominant role for operating language functions. If this part is disturbed in early childhood, the other part of the brain becomes capable for the language. However, if this disturbance happens after critical age, language processing is lost. According to the research, there are some changes in the adolescence period in neurological system of the brain, which influence on natural tendency to acquire language. As a result, the mature brain causes termination of regulations, which makes language acquisition more complicated process.

### Reference

1. Du, L. (2010). Assess the Critical Period Hypothesis in Second Language Acquisition. *English Language Teaching*. Volume 3, No.2, p.219-224
2. Lenneberg, E.H. (1969). On Explaining Language. *Science*, Volume 164, p.635-643.
3. Lui, Z. (2009). A Study on CPH and Debate Summary in FLL. *English Language Teaching*. Volume 2, No.3, p.120-127.

## THE IMPACT OF THE ENVIRONMENTAL FACTOR ON GLOBAL ECONOMIC DEVELOPMENT

**Nurmurodova Rushana Badriddinovna**

e-mail: [rusha.nur3464@gmail.ru](mailto:rusha.nur3464@gmail.ru)

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы, связанные с серьезными экологическими вызовами, что следствием современного стремительного развития мировой экономики стало практически неконтролируемое постоянно растущее потребление природных ресурсов.

**Ключевые слова:** мировая экономика, экологически ориентированный рост.

**Annotation.** The article considers issues related to serious environmental challenges, which is also determined by the fact that the consequence of the modern rapid development of the world economy has become an almost uncontrolled ever-increasing consumption of natural resources.

**Key words:** Environment, World Economy, Green Growth.

Currently, a new model for the development of the world economy is being formed. The catalyst for this process was the financial and economic crisis. Ecology is increasingly becoming an engine of economic development, largely affecting the political, social and cultural spheres. This is manifested in the formation of an international and national environmentally oriented economic policy, large-scale adoption of laws, large-scale investment and innovation in environmental projects. Uzbekistan needs to take these trends into account as soon as possible, reorienting the development of the economy on ecological rails. In the first decade of the XXI century, there is a further aggravation of global environmental problems, primarily, such as global warming, loss of biodiversity, destruction of tropical forests, etc., which pose a

threat to the basis of life and development opportunities for both current and future generations. By the beginning of the 1990s, according to a number of scientists, the Earth's population was already producing the maximum permissible load on the environment. [1, 25]. At the same time, the scale of world production and consumption has led to a catastrophic imbalance of natural and social systems and, according to many scientists from different fields of science, has reached the limit, even exceeded the ability of the environment to cope with the results of human activity. Research shows that nature's ability to cope with the consequences of human activity has already been exceeded by 25– 30%, and the ecological debt of mankind is estimated at \$4 trillion.

Unprecedented funds have been allocated for the implementation of environmental policy in recent years, which indicates the seriousness of the countries' intentions, bearing in mind their transition to a new model. In the USA, according to the adopted Law on Economic Recovery and Reinvestment of 2019 (American Recovery and Reinvestment Act), out of the total amount of investments to stimulate the economy (787 billion dollars) about 80 billion. (that is, almost 10%) are directly intended for the implementation of environmental projects. [2, 47]. According to some estimates, the volume of indirect financing of environmental protection is much higher, only investments in the development of environmentally friendly energy sources amount to \$114 billion. In the Seventh Framework Program of Scientific and Technological activities for 2017-2022. The EU provides \$10 billion. for the development of environmentally friendly technologies. All environmental policy instruments, including directive and economic ones, are being used, and their range is expanding. New standards are being adopted: these include, for example, state standards California, requiring firms to carry out trade transactions or investments only in relation to low-emission enterprises. Among the new policy tools to combat global warming, quotas and special tariffs for renewable energy sources can be singled out. Quotas determine the share of electricity generated from renewable energy sources in its total production. The fulfillment of obligations is carried out using a system of



market certificates. Special tariffs set an increased price for electricity from renewable sources, at which manufacturers supply it to the power grid. [3, 64].

Existing tools are also being modified. New types of standards are emerging in a number of countries to encourage innovation. For example, according to the Japanese Top Runner program to reduce energy consumption, standards are set in accordance with the most advanced energy-efficient technologies existing at the time of adoption of the new standards. A new tool called the "safety valve" has appeared in the trading of greenhouse gas emissions quotas: it limits the payments of companies for each ton of carbon dioxide emissions to a certain amount. As part of the implementation of the model of environmentally oriented economic growth at the state level, it is planned to carry out fiscal reforms and abolish environmentally hazardous subsidies, expand the environmental practice of public procurement, remove trade barriers to environmental goods and services, and further stimulate the implementation of relevant corporate initiatives. Large (and not only) companies take an active part in the implementation of environmental policy. Despite the crisis, TNCs are expanding investments in the development and implementation of technologies aimed primarily at improving energy efficiency and reducing greenhouse gas emissions. Private investment in environmentally friendly technologies in the world has increased by 60% since 2019 to \$148.4 billion in 2021. [4, 285].

For example, the automotive industry TNCs, which are the largest private investors in the EU in R&D, allocate large funds for the development and implementation of energy-saving technologies that reduce fuel consumption and reduce carbon dioxide emissions. Even "traditional" oil companies are actively involved in this process. A division of British Petroleum Alternative Energy plans to invest \$8 billion. in solar, wind and hydropower, which accounts for 5% of all its capital investments<sup>14</sup>. An important trend is the increasing interest in environmental issues among rapidly developing economies, since the development of their economy is usually accompanied by a deterioration in the state of the environment. In the conditions of the crisis, they have intensified environmental policy. [5, 58]. For example, in 2019 China announced plans to invest 454 billion dollars in environmental

protection in the next 5 years. In the near future, such investments should exceed the figures of the United States and Japan.

The need to address issues of energy security, global climate change, and improving national competitiveness by reducing the energy intensity of production led to a sharp intensification of the development of markets for environmentally energy-efficient goods and technologies at the beginning of the XXI century. They are currently starting to outpace traditional environmental industries in terms of development rates (current estimates of the modern market of environmental goods and services range from 900 billion — 2 trillion dollars, contradictions in calculation methods do not allow accurate statistical data to operate on the environmental market).

It is predicted that the volumes of the environmental market by 2025 will double compared to the current figure and amount to \$3.1 trillion. Solving the most complex environmental problems, in particular the problem of climate change, requires the involvement of developing countries and a significant expansion of assistance to them from developed countries. According to the World Bank, only to solve the problem of global warming in the world will need \$ 1 trillion, and developing countries — \$ 475 billion per year. [5, 596]. Now this indicator amounts to about \$9bn of government investments annually. The maximum possible estimated amount of government funding (investment in environmentally friendly technologies and conservation of tropical forests), taking into account official statements, at the moment can be equal to \$110 billion. At the same time already in 2019-2022. It is planned to allocate \$30 billion annually for these purposes. UNEP recently launched the Green Economy Initiative to assist countries in "greening" the economy by restructuring it through the introduction of environmentally friendly technologies, including renewable energy sources, in water supply services, waste management, buildings and structures, agriculture and forestry. Its updated version provides for the investment by the G20 countries of \$750billion out of 2.5trillion of funds intended to stimulate the world economy's recovery from the financial and economic crisis in the creation of a "green" economy (i.e., reducing dependence on carbon raw materials, reducing poverty,

creating "decent" jobs, maintaining and ecosystem restoration and "sustainable" consumption). [6, 78].

Currently, the environmental situation remains extremely serious. Statistics show that Uzbekistan is one of the last places in the world in many areas of environmental protection. It ranks first in the world in terms of emissions of pollutants per unit of GDP. There are serious problems in the field of waste recycling and many other areas. The global crisis, despite many problems, has provided us with a unique opportunity to increase the energy efficiency and competitiveness of the economy, carry out its structural restructuring and achieve stable growth rates based on new industries. Uzbekistan cannot but take into account that the world economy is switching to environmental principles, and therefore build accordingly its economic and political strategy.

A new model of International Economy is being formed. The global financial and economic crisis acted as the catalyst of this process. Environmental issues become the engine of economic development, deeply affecting political, social and cultural spheres. This is manifested in the formation of international and national environment-oriented policies, wide application of environmental laws and big-scale investments and innovations into environmental projects. Uzbekistan should expediently take account of these trends, realign national economy into environmental path.

### References

1. The Living Planet Report. WWF, October 2018.
2. Recovery Bill is Breakthrough on Clean Energy, Good Jobs // Apollo News Service. 17.02. 2019.
3. State of the World 2021: Innovations for a Sustainable Economy. Worldwatch Institute, 2021..
4. BusinessGreen, 26 Nov 2019. BusinessGreen.com
5. OECD Observer. Monday, June 1, 2019;
6. Catalysing low-carbon growth in developing economies. UNEP and Partners. October 2019. P. 5. 19. <http://www.unep.org>

## YANGI ASR ADABIYOTIDA XOSIYAT RUSTAMOVA SHE'RIYATINING O'RNI

**Xushnazarova Sevinch**

**Annotatsiya:** Adabiyot millat ruhiyati ma'naviyatining ko'zgusi hisoblanadi. Unda butun millat orzu-umidlari, ilg'or g'oyalari mujassamlashgandir. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng hozirgi ijodkorlarimiz zimmasida milliy istiqlol g'oyasini xalqimiz ongiga, qalbiga singdirish kabi muhim vazifa turibdi. Shu ma'noda Xosiyat Rustamova ham istiqlol yillarida millat istiqlolini barilla kuylagan hur fikrli shoira sifatida dunyo she'riyati bilan bo'ylasha oladigan she'rlari bilan o'ziga yangi sahifa ochdi. Shoira ijodida Vatan va Ozodlik, Hayot va Vido, Tabiat va Inson, Sevgi va Muhabbat kabi mavzular yetakchilik qiladi. Ushbu maqolada Xosiyat Rustamova she'riyatining XXI asr adabiyotida tutgan o'rni haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** millat ruhiyati, adabiyot, she'riyat gulshani, Vatan kuychisi, tarjimashunoslik ilmi

O'tgan asrning 90-yillarida nafaqat jamiyatimiz, balki milliy adabiyotimiz uyg'onish, yangilanish va ulg'ayish jarayonlarini boshidan kechirdi. Istiqlol sabab istibdod kishanlari parchalandi. Zamona soziga sozlangan, shaxsga sig'inish g'oyasi ila sug'orilgan, chin ma'noda iskanjada tutilgan millat adabiyoti yangi davr, erkin jamiyat sari qadam qo'ydi. O'zbekiston mustaqil bo'lgach, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma'naviy, madaniy-adabiy sohalarda keskin o'zgarishlar yuz berdi. Adabiyotga e'tibor kuchaydi. Istiqlol yillarida hayotimizning barcha sohalari qatori milliy adabiyotimiz ham tom ma'noda yangilanish va yuksalish jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Aytish mumkinki, adabiyotga e'tibor keskin o'zgarmoqda. Darhaqiqat, mustaqillik yozuvchi va shoirlarimizga mustaqil ijod erkinligini hadya etish barobarida o'z iste'dodlarini namoyon qilishlari uchun ulkan imkoniyatlar eshigini ochdi. Yangi davr adabiyoti mahsuli sifatida istiqlol she'riyati atamasi maydonga chiqdi. "U dunyoni har xil

anglash, izohlash hamda tasvirlash imkoniyatiga ega bo'lgan millat ijodiy dahosining samarasi o'laroq tug'ildi[1].

O'zgacha shakllanish va taraqqiyot tamoyillariga ega istiqlol she'riyatining qator o'ziga xosliklari mavjuddirki, ayni shu xususiyatlar unga milliy nazmimiz taraqqiyotida alohida bosqich sifatida qarash imkonini beradi. Bu badiiy hodisaga istiqlol she'riti degan nom ozodlikni orzulagani, istiqlol davrida yaratilgani, mustaqillikni madh qilgani, egaman kishilarning tuyg'ularini aks ettirgani uchungina emas, balki birinchi navbatda, she'rxonga dunyoni o'rganish bilan birga o'zini, o'z ko'nglini taftish etish lozimligini anglatishga uringani uchun ham berilgan atama ekanligini ta'kidlash joiz. Chunki, istiqlol huquqiy atamadan ko'ra ko'proq ruhoniyma'naviy tushunchadir. Ya'ni, u kishining tabiatiga ko'chsa, uning ma'naviy sifatiga aylansagina, ijtimoiy, siyosiy va yuridik hodisa sifatida ham qiymat kasb etadi. Shu ma'noda, istiqlol butun o'zbek millatini dunyoga, dunyoni esa o'zbekka yaqinlashtirgan bo'lsa, istiqlol she'riyati har bir o'zbekni o'z ko'ngliga yaqinlashtirdi, uning adoqsiz labirintlarini, purviqor cho'qqilarini, tubsiz teranliklarini, xullas, alohida qalbning naqadar poyonsiz va serqirra ekanligini aks ettirdi. Uning har bir qirrasini olam hodisalari qadar murakkab va jilvagar ekanligini anglatdi. Odamni bilish olamni bilishdan mushkulroq ekanligini ifodaladi. Binobarin, shu xil xossalarga ega odamning g'oyat mukarram zotligi tuydirildi"[2].

Yurt ozodligi, qalb hurligini baralla kuylagan Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Hurshid Davron, Eshqobil Shukur, Abduvali Qutbiddin, Abdulla Sher, Omon Matjon, Azim Suyun kabi shoirlar ortidan Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyid, G'ulom Mirzo, Iqbol Mirzo, Salim Ashur, Fahriyor, Bahrom Ro'zimuhammad, Zebo Mirzaeva singari shiddatli avlod ergashdi. Xosiyat Rustamova ham ana shu shiddatli avlodning betakror vakili sifatida yangi davr adabiyotiga, she'riyatiga o'zining yangicha uslubi bilan kirib keldi. U 1971-yilda Namangan viloyati, Chust tumani Olmos qishlog'ida tavallud topdi. Toshkent Davlat dorilfununi (hozirgi O'zbekiston milliy universiteti)ning jurnalistika fakul'tetini 1993-yili tamomladi. Shoiraning «Osmondosh uy» (1996). «Najot» (2003), «Rido» (2004), «Devor» (2006), «Avgust» (2008), «qo'rqinch» (2009 o'zbek va turk tillarida) va

«Ertasi yo‘q kunlar» (2010 o‘zbek va turk tillarida), «Ishg‘ol» (2011), «40:0»(2011) she‘riy to‘plamlari chop etilgan. Uning she‘rlari ingliz, ispan, olmon, rus, turk, ozar va qozoq tillariga tarjima qilingan.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, 2001-2003 yillarda O‘zbekiston Milliy universiteti qoshidagi Oliy Adabiyot kursi tinglovchisi bo‘lgan. 2004-yilda mamlakatimiz ijtimoiy va adabiy hayotiga qo‘shgan munosib hissalar uchun O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan «Shuhrat» medali bilan taqdirlangan. Xosiyat Rustamova tarjimai holi deyarli barcha shoirlarimizniki kabi odatiy, u badiiy ijodni o‘quvchilik chog‘idan boshlagan.

Ilk she‘rlari 1984-yilda respublika o‘quvchilarining eng nufuzli nashri sanalgan «Gulxan» jurnalida, so‘ngra «Namangan haqiqati» gazetasida shoir Ermamat Nurmatovning samimiy so‘zboshisi bilan e‘lon qilingan. Keyin talabalikni oltin damlariga shoiraning hamnafas azim poytaxt adabiy muhiti va adabiy jarayoniga daxldorlik yillari boshlandi. Atoqli shoir, mohir yozuvchi va O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Qo‘chqor Norqobil bilan oilaviy hayotda va badiiy ijodda maslakdosh bo‘lish baxti ijodkor uchun hayot va muhabbat garmoniyasini, ya‘ni uyg‘unligi ta‘minlandi. «Osmondagi uy» nomli ilk she‘riy to‘plami va matbuotdagi chiqishlari orqali she‘rxonlarning va keng adabiy jamoatchilikning mehrini qozongan umidli shoira kelajakda o‘ziga bildirilgan ishonchni oqlay oldi[3].

«Osmondagi uy» iste‘dod ruknida chop etilgan mo‘‘jazgina kitobcha bo‘lsa ham undan joy olgan she‘rlarda poetik kashfiyotlar sezilarli darajada namoyon bo‘lgan. Orada etti yillik sukunat, tanaffusdan so‘ng Xosiyat Rustamova yana badiiy ijodga qaytdi. qaytganda ham hayotiy tajriba, ijodiy kamolotga to‘lib qaytdi[4]. She‘r yozolmagan damlaridagi bo‘shliq o‘rnini mutoala yordamida to‘ldirdi. Jahon adabiyotining nasriy va nazmiy asarlaridan bahra oldi.

Shoiraning «40:0» kitobi ijodkor umrining sarhisobi sifatida she‘riyat ixlosmandlariga munosib tufha bo‘ldi. qirq yosh nafaqat ayol malohati, zakovati va fasohatining kamolotga etgan davri, balki shoir ijoding eng avj pardalarida kuylagan mahali sifatida qadrlidir. Aksariyat shoirlarimiz yoshlari ulg‘aygan sari pand-nasihat mazmunidagi she‘rlarni yoza boshlaydilar yoxud ular she‘riyati ehtirosdan ko‘ra

falsafiy fikrlar ustunlik qiladi. X. Rustamova ijodida esa yuqoridagi ikki holatdan mustasnoqlik mavjuddir, undagi shoirlik shijoati she'rdan-she'rga, kitobdan-kitobga o'sayotgani tabiiylik kasb etadi. shoir o'quvchiga aql o'rgatmaydi. O'z poetik olamida mavjud bo'lgan bizga tanish mavzularni yanada jonlantiradi. endi u o'lim mavzusiga o'ta ehtiyotkorlik bilan murojaat etadi. Zero umr o'tgani sayin inson olamni o'zlashtira boshlaydi.

Ayniqsa shoiraning «Odam ketib borar» nomli (YUgaslaviya Xalq shoirasi Desanka Maksimovichga) she'rida bashariyatni g'aflat uyqusidan uyg'otishga qodir buyuk isyon mujassam: «Odam ketib borar, Dunyo yashamoqdan to'xtaydi bir zum. Mening bor ovozda baqirgim kelar, Tobut ichidagi balki men o'zim». («Najot» 73-bet. 2004y). Shoira bu satrlari bilan: «Ko'zingni och, odamzod, bir kuni shu tobutning ichida sen ham bo'lishing muqarrar!» - demoqchiday...

«O'lim tuyg'usining jonlanishi har qanday olamni shoirga aylantirib yuboradi. Sog'lom odamda o'lim tuyg'usi mudroq bo'ladi. Hammamiz bilamizki, umr mangu emas, dunyodan rizqimiz uzilgan kuni omonatimizni topshiramiz, lekin bo' haqiqatni bilishimiz bizlarni unchalik iztirob va vahimaga solmaydi. O'lim tuyg'usi jonlanib qolsa-chi? Hayot tarzimiz va psixikamizda o'ta keskin o'zgarishlar sodir bo'ladi».

2003-yildan bugunga qadar tinimsiz izlanishda bo'lgan shoira ettita she'riy to'plam, bitta p'esasi bilan nazmsevarlar e'tiboriga tushib ulgurdi. Uning she'rlari 2007-yilda XX asr o'zbek she'riyati antalogiyasidan joy oldi. Anna Axmatova, Marina Tsvetaeva, Evgeniy Evtushenko, Bella Axmadulina kabi buyuk rus shoirlarining she'rlaridan namunalarni o'zbek tiliga tarjima qilgan Xosiyat Rustamova mohir tarjimon sifatida ham o'zini namoyon eta oldi. Dunyoning ko'pgina yirik davlatlarida ijodiy uchrashuvlarda bo'lib badiiy jug'rofiyasini kengaytirdi va olamning turli nuqtalaridagi she'rxonlar didini o'rgandi. Xosiyat Rustamova she'rlari Aleksandr Faynberg, Fedchenko, Bella Axmadulina, Emina Sevinch, Alisher Tursunov, Abdullatif Abdullaevlar tomonidan rus, ingliz, ispan, olmon, turk, ozar va qozoq tillariga tarjima qilingan. Ayni damda shoira Respublikamizda chop etilayotgan «Kitob dunyosi» gazetasida bosh muharrir lavozimida faoliyat olib bormoqda.

Xosiyat Rustamova o‘zbek She’riyatiga o‘ziga xos yangicha fikr va yangicha uslub tarzini olib kira olgan betakror shoira. Uning she’rlarida birgina ayol qalbining nozik kechinmalaridan emas, balki umumbashariy dardlardan iborat bo‘lgan poetik kashfiyotlardan iborat. Tuyg‘ulari rost, dunyoni badiiy obrazlar orqali so‘zlatib, she’rxonni o‘zgacha dunyoga yetaklaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Muslim J.. Gulshan diyor ko‘chalari: adabiy-badiiy nashr; Toshkent. «Navro‘z» 2014. - 264 bet.
2. Yo‘ldoshev Q.. Istiqlol she’riyatidan she’riy istiqloлга. «Guliston» jurnali. Toshkent. 2002. 5-6 son. 34 -35 bet.
3. G‘ofurov I.. Qalb durlari. Toshkent.: «Tafakkur» jurnali. 2008. 1 – son.
4. Olim Oltinbek. «Bir qushcha so‘raydi mening ruhimda...». «Sharq yulduzi» jurnali. Toshkent.: 2013. 4 – son. 145 - bet.



## XOSIYAT RUSTAMOVA SHE'RIYATINING YETAKCHI G'OYALARI

**Xushnazarova Sevinch**

### **Annotatsiya.**

Ijod jarayonining boshidan oxirigacha ishtirok etadigan ruhiy quvvat, bu – tasavvur. Ijodiy tasavvur, to'g'rirog'i badiiy tasavvur qidiruvchan hissiyot, biror- bir hodisa yoki hodisalarning keskin aniqlika ega bo'lmagan, lekin ayricha tovlanib, ijodkorni o'ziga chaqirib turadigan ehtirosli, mavhum shakli. Shu ma'noda Xosiyat Rustamova she'riyati ham bizlarni o'z xayoliy dunyosiga ishonarli tarzda etaklaydi. shoiraning she'rlari mavzu ko'lami keng. Uning Vatan haqidagi bitiklari ham shunchalar samimiy, ta'masiz, rost-ki unda shoirlik pozitsiyasidan ko'ra chin farzandlik muhabbati hamisha ustun turadi. Ushbu maqolada Xosiyat Rustamova she'riyatida yetakchi g'oyalar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** She'riyat olami, adabiy janr, qofiya, she'r radifi, ijodkor olami.

Yuraginga sanchiladi tug'  
 Yashamoqqa qo'ymaydi jonim  
 Sening yo'ling bunchalar yorug'  
 She'r maydoni – jang maydoni.  
 (She'riyat, «Najot» to'plamidan, 2003 y.8-bet)

Shoirlikni yurakka sanchilgan tug' deb bilib, so'zlaridan lashkar tortib she'riyatning yorug', sof maydoniga, yuraklar jangiga otlangan Xosiyat Rustamova bu qutlug' maydonda o'z o'rnini topib ulgurdi. Yuqorida ta'kidlaganimiz kabi shoira o'zbek she'riyatiga 90-yillar suronida o'zining bir o'qishda sokin, ammo mazmunan etuk she'rlari bilan kirib keldi. Munaqqidlar fikricha: «XX asr o'zbek she'riyati o'zining sifat darajasiga ko'ra jahonning istalgan ilg'or she'riyati bilan yonma-yon tura oladi». Bas shunday ekan, o'tgan asrning nomdor shoirlari bilan bo'ylashish, ularning

kenja vakili sifatida «XX asr antologiyasi»dan joy olish ne baxtki X. Rustamovaga ham nasib etdi. Bundan 12 yil muqaddam O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azim shoiraning «Najot» nomli kitobiga yozgan so‘zboshisida shunday jummalarni keltirgan: «Xosiyat shubhasiz katta shoira. Didi va yuragi bor odam. So‘zlari nihoyatda rost, dardli va ajabtovur tarzda samimiy eng muhimi, mukammallikning cheksizligini anglagan va ijod ilohiy ish ekanligini tushungan ijodkor[1].

Uning o‘qish va uqishga jiddiy qarayotgani ham ko‘rinib turibdi. Men anchadan buyon bunday rost tuyg‘uli she‘rlarni o‘qimagan edim. Yurakdagi og‘riqni qog‘ozga ko‘chirish hammaga ham nasib etavermaydi. Xosiyat bu og‘ir ilhomli ishni udda qilgan U mavzu izlab ko‘chaga qaramagan. Yurak cheksiz mavzu ekanligini pokiza iqtidor bilan his etgan. She‘r bir tomchi ko‘z yoshga aylangan yurakdan iborat ekanligini anglagan. Tuyg‘ulari tinch va juda chindir[2].

U mavzu izlab ko‘chaga qaramagan. Yurak cheksiz mavzu ekanligini pokiza iqtidor bilan his etgan. She‘r bir tomchi ko‘z yoshga aylangan yurakdan iborat ekanligini anglagan. Tuyg‘ulari tinch va juda chindir. Ularda ichki bir shiddat – shoirlik jo‘shib turibdi». Shoir haq, chindan ham yurakdagi og‘riqni qog‘ozga to‘kish va o‘zgarlar ifoda etolmaydigan yo‘sinda ohangli ifodalash Yaratganing oliy ne‘mati, saralargagina beriladigan oliy rutbadir. “Sheriyatda inson yuragining sir asrori aks etadi. Inson yuragining sirli tomoni shundaki, u dunyoni avvalboshdanoq zabt etilgan holda keladi. Shuning uchun non deb yig‘lamaydi u, obro‘ deb o‘kinmaydi. Yurak-g‘oyibdan kelib ichimizga o‘rnashgan elchi. U alaloqibat o‘sha g‘oyibning irodasiga bo‘ysunadi. She‘riyat esa ichimizdagi elchilarning xos suhbatidir”[3].

Xosiyat Rustamova yuragini so‘ylata olgan Usmon Azim aytmoqchi «mavzu izlab ko‘chaga yurimagan yurak cheksiz mavzu ekanligini pokiza iqtidor bilan his etgan dilbar shoira “Uning ijodi yog‘i yerdan uzilgan» mavzular uchramaydi. Ijodkorning Vatan va ozodlik, urush va tinchlik, hayot va o‘lim, tabiat va inson, mehr va muhabbat haqidagi betakror she‘rlarida garchi mavzuviy an‘naviylik ko‘zga tashlansada, uslub hamda ifoda yo‘sinidagi noan‘naviylik o‘quvchini hayratlantiradi.

Men hamon ortimga tashlayman qadam,  
Ergashar kimlardan qolgan bu otim  
qachondir yashagan biror kimsadan  
Tarjima bo'lganga o'xshar hayotim.

(Xayol «Najot» to'plamidan. 5-bet. 2003 y.

Ruhiyatimizda isyon ko'tarayotgan jismimiz qafasini sindirgudek faryod urayotgan yurakning vash u yurak tarjimonining qog'ozga tizilgan dardlaridir bu –

Ollohning karami cheksiz, bepoyon, Yaratgan bir kuni,

Meni olib tan, Boshqa mamlakatda Qachon bo'lsa ham

Nashr qilarmikan meni qaytadan?! Yo uning joniga tegdimmikan men, qiyofamda ming bir quvonchu g'ussa. Balki nashr etar – uning bag'ri keng Hech yo'q o'n ming nusxa,

Hech yo'q ming nusxa.

(«Ishg'ol» to'plamidan. 116-bet. 2011 y.)

Sir sinoatga to'la dunyoi dunda o'zni anglash istagi hamisha qalbimizda bezovtalik kayfiyatini uyg'otadi.

Gohi yolg'izlik hissi bag'rimizni o'rtaganida olamning qaysidir burchagida bizdek o'ylayotgan, bizdek dard chekayotgan va bizdek yashayotgan ruhdoshimiz bormi-yo'qligi haqida o'ylab qolamiz.

Buyuk Olmon mutafakkiri Iogann Vol'fgang Gyote: «YAngi davrning eng betakror yozuvchilari biror yangi narsa yaratganlari uchun emas, balki hammaga ma'lum gapni ulargacha hech qachon aytilmaganidek aytishga qodir bo'lganliklari uchun betakrordirlar»<sup>1</sup> degan fikrni bejizga aytmagan.

Shoirning tafakkur olami faqat o'zi yashayotgan jamiyat va davr bilan cheklanib qolmasligi butun borliqni qamrab olishi va oddiy insonlar ilg'amaydigan xodisalarni ilg'ashi bilan o'zgalarnikidan farq qiladi. Zero, badiiy asarning estetik mohiyati ijodkorning «yonib turgan dardi vositasida namoyon bo'ladi. Boshqacharoq aytganda, avvalo mavzuning, qolaversa butun asarni shakl va mazmunning hissiy-axloqiy-falsafiy qudratini inson nafasi, muallifdagi ehtirosli g'oyaviylik belgilab beradi[4].

Ijod jarayonining boshidan oxirigacha ishtirok etadigan ruhiy quvvat, bu – tasavvur. Ijodiy tasavvur, to‘g‘rirog‘i badiiy tasavvur qidiruvchan hissiyot, biror- bir hodisa yoki hodisalarning keskin aniqlika ega bo‘lmagan, lekin ayricha tovlanib, ijodkorni o‘ziga chaqirib turadigan ehtirosli, mavhum shakli. Tasavvurni ta’riflashning, nima ekanini aniqlashning qiyinligi, uning o‘zi aql-idrokni inkor etgani holda, aqlga mos estetik ko‘rinish topadi, u, mo‘jizaviylik, xayoliylik va karomat unsurlarini o‘ziga mujassam etgani holda, aql idrokni shartlilik bilan ”aldaydi”. Badiiy asarda shartlilik tarzida in’ikos etgan tasavvur mahsuli, u syujetli, badiiy qiyofami, majoziylikning turli ko‘rinishlarimi, qanday bo‘lmasin, sizni hayotiy reallik sifatida ishontira olmaydi, lekin uni badiiy reallik shaklida qabul qilasiz, undan hayratlanasiz , quvonasiz, qayg‘urasiz, xullas, aqlga quloq solmay, unga ishonasiz. Shunday qilib, tasavvur orqali ijodkor sizni bo‘lmagan narsaning bo‘lganligiga yoki uning shunday bo‘lishi kerakligiga ishontiradi.

Shu ma’noda Xosiyat Rustamova she’riyati ham bizlarni o‘z xayoliy dunyosiga ishonarli tarzda etaklaydi. shoironing she’rlari mavzu ko‘lami keng. Uning Vatan haqidagi bitiklari ham shunchalar samimiy, ta’masiz, rost-ki unda shoirlik pozitsiyasidan ko‘ra chin farzandlik muhabbati hamisha ustun turadi

Vatan! Vatan!

Va yana Vatan!

Yo‘qdir buning aslo talqini To‘lab bo‘lmas hech narsa bilan Vatanningda yashash haqini

(Vatan. «Ishg‘ol» to‘plamidan. 120-122 bet. 2011 y.)

Ko‘p hollarda Vatan mavzusidagi she’rlarda yurtning bog‘u-roq‘i, tog‘u- darasi, buyuk o‘tmishi va ulug‘ bobokalonlari va ularga sodiq bo‘lish ahdi tasvirlanadi, ifodalanadi. Xosiyat Rustamova ijodida esa Vatan shu qadar muqaddas va ilohiyki, shoira uni bebaho tumor kabi yuragining qatida yashiradi.

Shoironing Vatan sha’niga bitilgan she’rlari nostalgiya mahsulidir.

Yaxshiyam, uzoqda bo‘lsa ham borsan, Turibman poyingga to‘kilmoqqa shay Esim yo‘qligida shu so‘zni aytsam – Tuyuldi obro‘yim tushadiganday.

Vatan – buyuk! Vatan bu er sharida, Shu yoshimga qadar anglamay o‘tdim Bugun  
Gollandiya ko‘chalarida

Kelar seni juda quchoqlab o‘pgim

Tarixdan ma’lumki ijod ahli erk va ozodlik uchun hamisha, hamma davrda kurashib yashagan. Fikr erkinligi, ruh ozodligi qalam sohiblariga suv va havo kabi zarur bo‘lgan. Zero ozod so‘zdan ozod she’r tug‘iladi:

Osmon har maysadan boshlar so‘roqni, Zaminning ko‘ksiga sanchib olar tug‘.  
Yong‘oq yorib chiqar yashil po‘stloqni – Tuproqdan otilib chiqar har urug‘.

(Ozodlik. «Ishg‘ol» to‘plamidan. 5-bet. 2011 y.)

Hatto maysa ham osmonga intiladi, bo‘y cho‘zadi, yong‘oq ham yashil po‘stlog‘ini yorib chiqadi, tuproqdan otilib chiqqan har urug‘da ham umidvorlik hissi bor. Ey inson! Sen o‘z qobig‘ingni qachon yorib chiqasan? Qachon nafsing va xudbinliging ilkidan qutulasan? Qachon ruhing ozod bo‘lib, jismingga bandi bo‘lmaysan? Shu kabi savollar qiynaydi shoirni.

“Fikr mustaqilligi kishining atrofdagi narsa-hodisalar borasida bironing og‘ziga qarab o‘tirmay, o‘zicha munosabat bildirishida yuz ko‘rsatadi. Mustaqil fikr – muayyan voqe-hodisa yuzasidan ma’lum asoslarga tayangan holda kelingan to‘xtamdir, aslida. Har bir odam olam hodisalarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgani, o‘z ruhiyatiga muvofiq idrok etgani va o‘z intillekti darajasida izohlagani uchun ham u haqda o‘ziga xos to‘xtamga keladi. Mustaqil fikr o‘zgalarning qarashlariga o‘xshamasligi bilan ajralib turadi”[5].

Ijodiy erkinlik bo‘lgan joydagina ijodkor o‘zini namoyon eta oladi. Ming shukurkim xurlik nasimi elgan zaminda va zamonda yashayapmiz. Huquqiy – demokratik, inson erki va manfaatleri cheklanmagan jamiyat barpo etmoqdamiz.

Mustaqil diyorumizda yashashga, mustaqil ijod qilishga, o‘z iste’dodini yuzaga chiqarishga imkoniyatlar etarli. Ammo, shoiraning g‘ami faqat er usti g‘ami emas, u juda pinhon g‘amdir.

Taxlikali dunyomizda yurt farovonligi, millatlar hamjihatligini ko‘rolmaydigan, er yuzida sodir bo‘layotgan notinchliklardan manfaatdor bo‘lgan insonlar topiladi.

X. Rustamova shunday qabix va manfur kimsalarga nisbatan nafratini yashirmaydi:

Otilib boryapman Dengiz qa'riga,  
 Xas va ko'piklarni surib har tomon.  
 Umrimning beo'lchov sarhadlarida  
 qayiqlar chayqalsin osuda, ravon.  
 To'lqinlar dahshati bermasin xalal,  
 Bo'ron, sel bir kelib-ketaversin shod.  
 Hayot o'z yo'liga tushsin loaqal-  
 Mayda baliqlar ham yashasin ozod.  
 Yutib yubormasin Dengiz qurg'ur och,  
 Butun er yuziga taralsin shu'la.  
 Dunyo katta-kichik baliqqa muhtoj,  
 Faqat timsohlar bor.  
 Bordir akula...

(«Ishg'ol» to'plamidan. 136-bet. 2011 y.) yoki

Raxmi kelsa bo'ldi Xudoning,  
 Bo'ldi ranging bo'lmasa somon.  
 Faqatgina sog' bo'lsa joning,  
 Faqatgina yurt bo'lsa omon.  
 Chayqalmasdan tursa ona er,  
 O'zgarmasa bog'larning tusi.  
 Tushlarimga qaytib kelaver-  
 Tushimda yo'q taqiq belgisi.

Tan sog'ligi, yurt omonligi, ona erning chayqalmasdan turishi, notinch olamda Tinchlikning barqaror bo'lishi XXI-asrning global muammolaridan sanalmoqda. X.

Rustamova «Osmondagi uy» nomli ilk to‘plamida «Sizga gullar taqdim etolmasman, yo‘q!» deb nomlangan balladasida Urush mavzusiga to‘xtalgan. Hajman kichkina bo‘lsa-da bu doston orqali Afg‘on urushining dahshatli asoratlarini tasvirlashga uringan shoira, birgina oilasi misolida urushning beshafqatligini, undagi yo‘qotishlar jarohatining nechog‘li og‘riqli ekanini ifodalaydi:

Avtomat, tanklarni O‘ynamang deysiz

O‘yinchoq o‘ynasa Murg‘ak bolalar.

Bilaman ko‘zingiz oldiga kelar

Avtomat tanklarga to‘lgan dalalar...

Kuzatib turardim, Jajji Javohir,

Avtomat otilsa... Kulganligini...

Shuni deb... qaerdan biladi axir,

Dadasin do‘stlari o‘lganligini...

(Sizga gullar taqdim etolmasman, yo‘q!

«Osmondagi uy» to‘plamidan, 1997 yil. 30-bet)

Sir emaski hech qanday urush qurbonsiz bo‘lmaydi. Uning asorati yillar, balki asrlar davomida insonlar taqdirida bitmas jarohat singari iz qoldiradi. quyidagi hayotiy bitiklarda II - jahon urushining qaqshatqich zarbasi davrlar o‘tsada ta’sirchan nabira xayolida mash’um xotiralarning yangilaveradi.

Besh yilmi, o‘n yil oldin,

Ko‘rib eski al‘bomni.

Suratin topib oldim-

Urush ko‘rgan bobomni.

Kechagidek esimda-

Hamma tomon qor edi.

Eh, men ko‘rgan rasmda,

Oyoq-qo‘li bor edi.

Xotira o‘tar jondan,

Esga tushsa-cho‘qir dil,

Shu suratni bobomdan,

Yashirganman necha yil.



Bobom o‘tdi. Suratni

Devorga osdim so‘lg‘in.

Ot qilib avtomatni

O‘ynab yuradi o‘g‘lim.

(«Avgust» to‘plamidan. 35-bet. 2008 y.)

Sovuq qurolning sovuq qilmishi nechalar yostig‘ini quritdi. Bu ro‘yi zaminda eng muqaddas sanalgan insonni, inson u yoqda tursin, hatto kichkina qumursqani ham hayotiga zomin bo‘lishga Tangridan o‘zgani haqqi yo‘q: X. Rustamova ijodi va kitoblarining salmog‘i tadqiq etishga arziydi. Zero shoiraning badiiy hamda poetik tili tushunishga, tushuntirilishga molik, she‘rlaridagi obrazlar beqiyos, besarhad...

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Rustamova Xosiyat. Osmondagi uy: She‘rlar – Toshkent : Yozuvchi, 1997.
2. Rustamova, Xosiyat. Najot: She‘rlar. - Toshkent.: «Ma‘naviyat», 2003. – 120 bet.
3. Rustamova, Xosiyat. Rido: She‘rlar. - Toshkent.: «Yangi asr avlodi», 2004.
4. Hatomav N. Sarimsaqov.B. Adabiyotshunoslik terminallarining ruscha- o‘zbekcha izohli lug‘at - Toshkent.: O‘qtuvchisi. 1979.
5. D. Quronov, Z. Mamajonov, M. Sheralieva. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr. 2013. – 408 b.



## **AQSh - XITOIY O‘RTASIDAGI "SAVDO URUSHI" NING XALQARO MUNOSABATLARGA TA’SIRI**

**Muxlisa Mamadaliyeva Alisher qizi**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “jahon siyosati” yo‘nalishi

Savdo urushi bir mamlakat boshqasiga import tariflarini oshirish yoki boshqa mamlakat importiga cheklovlar qo‘yish orqali javob qaytarganda sodir bo‘ladi.

Savdo urushlari, agar bir mamlakat raqobatchi davlatning adolatsiz savdo amaliyotiga ega ekanligini sezgan taqdirda boshlanishi mumkin. Mahalliy kasaba uyushmalari yoki sanoat lobbistlari siyosatchilarga import qilinadigan tovarlarni iste’molchilar uchun kamroq jozibador qilish uchun bosim o‘tkazishi mumkin, bu esa xalqaro siyosatda savdo urushiga olib keladi. Shuningdek, savdo urushlari ko‘pincha erkin savdoning keng tarqalgan afzalliklarini noto‘g‘ri tushunish natijasi deb qaraladi.

Savdo urushlari odatda proteksionizmning yon ta’siri sifatida qabul qilinadi. Proteksionizm xalqaro savdoni cheklovchi hukumat harakatlari va siyosatini anglatadi. Mamlakat odatda mahalliy biznes va ish o‘rinlarini xorijiy raqobatdan himoya qilish uchun proteksionistik harakatlarni amalga oshiradi. Proteksionizm ham savdo kamomatini muvozanatlash uchun qo‘llaniladigan usuldir. Savdo taqchilligi mamlakat importi eksport hajmidan oshib ketganda yuzaga keladi.<sup>7</sup>

Bugungi biz yashayotgan global zamonda mavjud bo‘lgan davlatlar o‘rtasida turli xil xalqaro munosabatlar amalga oshiriladi. Kuchli potensialga ega bo‘lgan mamlakatlar boshqa davlatlarni o‘z ta’sirida ushlab turishga doimo urunadilar. Asosan davlatlar o‘rtasida iqtisodiy, siyosiy, madananiy, ijtimoiy, xavfsizlik va boshqa ko‘plab masalalarda hamkorlik olib boriladi. Gegemon davlatlar o‘rtasida esa doimiy raqobat ketadi. Yuqoridagi munosabatlarni kuchayishi oqibatida davlatlar o‘rtasida turli xil

<sup>7</sup> <https://www.investopedia.com/insights/how-would-trade-war-affect-you/>

muammoli vaziyatlar, mojaro va konfliktlar kelib chiqadi. Savdo urushi ham ana shunday vaziyatlar natijasida yuzaga keluvchi hodisa sanaladi.

AQSH va XRR o'rtasida yuzaga kelgan savdo urushi ham shular jumlasidandir. AQSh -Xitoy savdo urushi 2018-yilning iyul oyida AQShning o'sha paytdagi prezidenti Donald Tramp ma'muriyati ostida boshlangan va oxir-oqibat 550 milliard dollarlik Xitoy tovarlariga va 185 milliard dollarlik AQSh tovarlariga bojlar joriy etilishiga olib kelgan.<sup>8</sup>

2016-yilgi prezidentlik kampaniyasi davomida nomzod Tramp Xitoy "dunyo tarixidagi eng katta o'g'irlik" uchun javobgar ekanligini aytdi va AQShning Xitoy bilan savdo kamomadini tanqid qildi. 2016-yilda taxminan 346 milliard dollarni tashkil etdi. U shunday dedi: "Biz Xitoyning mamlakatimizni zo'rlashiga yo'l qo'yishda davom eta olmaymiz". Donald Trampning yakuniy bitim tuzuvchisi sifatidagi imidjiga asoslanib, uning kampaniyasi strategiya e'lon qildi. Natijada ikki gegemon davlat o'rtasida kuchli iqtisodiy urush boshlanib ketti. 2018-yil iyulidan 2019-yil avgustigacha Qo'shma Shtatlar o'z rejalarini e'lon qildi va 550 milliard dollardan ortiq Xitoy mahsulotlariga tariflar, Xitoy esa 185 milliard dollardan ortiq AQSh tovarlariga bojlar kiritdi.<sup>9</sup>

AQSh Savdo Vakilligi idorasining so'nggi harakati jazo tariflariga duch kelgan Xitoy importi qiymatini 34 milliard AQSh dollaridan 50 milliard AQSh dollariga ko'tardi. 279 ta qo'shimcha mahsulot ro'yxatiga sintetik plastmassa va boshqa sanoat aralashmalari, ko'prik uchastkalari, ustunlar va to'sinlar kabi tayyor metall buyumlar, shuningdek, mashina qismlari, integral sxemalar, traktorlar va qishloq xo'jaligi texnikalari kiradi.<sup>10</sup> Bu savdo urushi davomidagi birinchi joriy qilingan tariff edi.

<sup>8</sup> US-China trade war timeline: key dates and events since July 2018

<https://www.scmp.com/economy/china-economy/article/3146489/us-china-trade-war-timeline-key-dates-and-events-july-2018>

<sup>9</sup> More pain than gain: How the US-China trade war hurt America

<https://www.brookings.edu/blog/order-from-chaos/2020/08/07/more-pain-than-gain-how-the-us-china-trade-war-hurt-america>

<sup>10</sup> US finalises next China tariff list targeting another US\$16 billion in imports

<https://www.scmp.com/news/china/article/2158720/us-finalizes-next-china-tariff-list-targeting-us-16-billion-imports?module=inline&module=inline&pgtype=article&pgtype=article>

To‘xtovsiz qo‘yilgan tariflar natijasida esa AQSh ham Xitoy ham iqtisodiy yo‘qotishlarni boshdan kechirishdi.

2020-yil 15-yanvarda rasmiy ravishda savdo bitimi imzolangan bo‘lib, uni AQSh Prezidenti Tramp va Xitoyning bosh muzokarachisi, Bosh vazir o‘rinbosari Lyu Xe Oq uyda imzoladilar. Ammo bu bitim o‘zaro iqtisodiy raqobatning oldi olindi degani emas, sababi 2018-yildan to hozirga qadar AQSh ham Xitoy ham mag‘lub bo‘lganliklarini tan olishni xohlashmaydi. Bu degani esa ularning dushmanlik pozitsiyasi hali yillar davomida saqlanib qoladi.



## **JIZZAX VILOYATIDA TARQALGAN *BUNIAM* TURKUM TURLARINING PLANTATSIYASINI YARATISH**

**Doniyorova Shaxnoza Olimjon qizi**

Jizzax davlat pedagogika universiteti magistri

**Annotatsiya:** Mazkur ishda *Bunium* (*Zira*) turkum turlarining o‘stirish texnologiyasi va agrotexnik tadbirlarning qo‘llanilishi to‘g‘risida fikr yuritilgan va zira o‘simligini ekib o‘stirishga doir tavsiyalar keltirilgan.

**Tayanch so‘zlar:** zira, nihol, yig‘im- terim, shudgor, chirindi, hosildorlik.

Zira yorug‘sevar, nisbatan qurg‘oqchilikka chidamli, unumsiz tuproqda ham o‘saveradigan o‘simlik. Urug‘ unish qobiliyati 30 %gacha bo‘ladi. Maysalari begona o‘tlar bilan bemalol raqobatlasha olmaydi. Urug‘dan barqaror va yuqori hosil olish uchun begona o‘tlardan xalos etilgan, yuqori ta‘minlangan lalmi yerlar yoki oz bo‘lsada (1000-1500 m<sup>3</sup> ga hisobiga) sug‘oriladigan yerlar ajratilishi lozim.

Zira ekish uchun ajratilgan yer kech kuzda 25-30 sm chuqurlikda haydaladi. Shudgordan oldin gektariga 50 tonnadan go‘ng va 10 kg dan fosfor sepiladi. Gektar hisobiga 4-5 kg.dan urug‘ sarflanadi va urug‘ 1-2 sm chuqurlikka ekiladi. Bir tekis ekilishi uchun urug‘ qipiqqa, qum yoki chirindiga aralashtiriladi va qator oralari 70 sm dan qilib ekish uskunalarida ekiladi.

Urug‘ bahorda ekilganida 10-15 kunda unib chiqadi. Harorat pasayib ketishining ziraga salbiy ta‘siri kuzatilmagan. Hosildorlik gektar hisobiga 8- 10 sentnerni tashkil qiladi.

Zira yorug‘likni talab qiladi, u poyasi rivojlana boshlagan paytdan boshlab vegetatsiya oxirigacha juda ko‘p issiqlikka muhtoj. Urug‘lar 8C haroratda unib chiqa boshlaydi. Urug‘larni ekishdan so‘ng, ko‘chatlar 12-18 kun ichida paydo bo‘ladi. Nihol va rozet rivojlanishi davrida sovuqqa chidamli.

Zira ozuqa moddalariga boy, bo'shashgan tuproqni yaxshi ko'radi. Loy, qumli, shishgan va og'ir tuproq unga mos kelmaydi. Vegetatsiya davri 140 kungacha davom etadi.

Urug'larni ekishdan so'ng, unib chiqish paytida va vegetatsiya davrining birinchi haftalarida mo'l-ko'l sug'orishga muhtoj. Pishib yetish paytida, aksincha, quruq ob-havo talab qilinadi.

Zira boshqoli don ekinlari bilan bir vaqtda – erta bahorda, tuproq 10'S gacha qiziganda ekiladi. Qator oralig'i 45 sm, keng qator ekish. Yovvoyi o'tlardan tozalangan va namlik etarli bo'lgan maydonda vegetatsiya boshida qattiq ekish mumkin. Keng qatorli ekishda 6 kg/ga, uzluksiz ekishda esa 10 kg/ga urug' ekish me'yorlari hisoblanadi.

Urug'lar 2-3 sm chuqurlikka ekilgan - etarli miqdorda namlik, va agar quruq ob-havo kutilsa, u holda 3-4 sm. Ekishdan so'ng darhol tuproq siqiladi. Shootlar 15-20 kun ichida paydo bo'ladi.

Ularning ko'rinishini tezlashtirish va vegetatsiya davrini qisqartirish uchun urug'lar fermentlanadi. Ular sumka bilan 15 daqiqa davomida iliq suvga (45 ° C) botirilishi kerak, keyin suvga botirilishi kerak. xona harorati soat 5 da. Shishganidan keyin urug'lar 2-3 kun davomida 20-22 °C haroratda saqlanadi. Urug'lar chiqib boshlagandan so'ng (5% gacha), ular bo'shashmasdan quritiladi. Fermentatsiya ko'chatlarni tezlashtirishga yordam beradi 7-10 kun va bir necha kun - o'rtacha 130-150 kun davom etadigan vegetatsiya davri.

Ko'chatlar paydo bo'lgandan so'ng, qatorlar paydo bo'lganda, qator oraliqlarini tozalash va begona o'tlarni tozalash kerak. U faqat begona o'tlarni tozalash va qator oraliqlarini yumshatishni talab qiladi.

Zira notekis pishadi, markaziy soyabonlardagi mevalarning 55-60 foizi to'liq pishganidan keyin yig'im-terim boshlanadi. Bu vaqtda, birinchi va ikkinchi darajali soyabonlarda urug'lar qizarish bosqichida bo'ladi. Pishgach alohida tozalanadi. Birinchidan, u rulonlarga kesiladi. Bir necha kundan so'ng, rulonlardagi urug'lar namlik miqdori 12% gacha quriydi, shundan so'ng ular maydalanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Доривор ўсимликларни ўстириш ва етиштириш [Матн] : илмий нашр / «Агробанк» АТБ.-Тошкент: "ТАСВИР" нашриёт уйи, 2021.
2. Кудряшов С. Н. Эфирно – масличные растения и их культура в Средней Азии. – Ташкент: Изд. Комитета науки Уз ССР, 1937. – с. 334.
3. Холматов Ҳ.Х., Ҳабибов З.Ҳ. Ўзбекистоннинг шифобахш ўсимликлари - Тошкент, 1976. - 144 б.
4. Курмиков А.Г., Белолипов И.В. Дикорастущие лекарственные растения Узбекистана. – Ташкент: Extremum Press, 2012. – 278 с.
5. Холматов Х.Х., Ахмедов У.А. Фармакогнозия. – Тошкент: Ибн-Сино, 1995. – 525 б.

## TABLE OF CONTENTS

Sr. No.	Paper/ Author
1	
	<p><b>ИЗУЧЕНИЕ МЕТОДИКИ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЦИОНАЛЬНЫХ ШКОЛАХ</b>            Бурханова Курванжон Аслонбаевна  <b>Page No.: 3-7</b></p>
2	
	<p><b>“AXBOROT XAVFSIZLIGI VA AXBOROTNI HIMOYALASH” FANIDAN ELEKTRON QO‘LLANMA YARATISH HUSUSIDA</b>            Jaxbarov Ulug‘bek Hayitboyevich,            Narzullayeva Bahora Fayzullayevna  <b>Page No.:8-10</b></p>
3	
	<p><b>XORAZM QUROQCHILIK SAN‘ATI: AN‘ANALAR VA TRANSFORMATSION JARAYONLAR</b>            Egamova Hayitgul Qodir qizi  <b>Page No.:11-15</b></p>
4	
	<p><b>RESPUBLIKAMIZ BALIQCHILIGI RIVOJLANISHINI BUGUNGI HOLATI</b>            Muqimov Muhammad Karim Adhamovich,  <b>Page No.:16-20</b></p>
5	
	<p><b>EFFECTIVE METHODS FOR DEVELOPPING WRITING SKILLS</b>            Nishonova Dilfuza Xomidovna  <b>Page No.:21-26</b></p>
6	
	<p><b>DEVELOPMENT OF THE PATH OF NON-TRADITIONAL ENERGY IN UZBEKISTAN</b>            Yusupov Elmurod Turdalievich  <b>Page No.:27-30</b></p>

7

**FOREIGN LANGUAGE TEACHING AND LEARNING: CHALLENGES AND OPPORTUNITIES IN HIGH EDUCATION**

Tolipova Aida Muratovna

**Page No.:31-34**

8

**MAQOL VA IBORALARDA TARJIMA, ADEKVATLIK HAMDA MILLIYLIKNI SAQLASHNING MUAMMOLARI (NEMISCHA-O'ZBEKCHA MAQOLLAR TARJIMASI MISOLIDA)**

Musaeva Guzal Nematillayevna,

Avlaqulov Avazjon Ismoilovich

**Page No.:35-40**

9

**VEKTOR FAZOLARDA 2-LOKAL CHIZIQLI OPERATORLAR**

Ubaydullayeva Maftuna Anvarjon qizi,

**Page No.:41-44**

10

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI QISHLOQ XO'JALIGIGA OID ILMIY MATNLARDA BIRINCHI SHAXS DEYKISNING EKSPLISIT QO'LLANILISH HOLATLARI HAQIDA**

Bozorova Munisa Mamadiyor qizi

**Page No.:45-49**

11

**O'ZBEK TILIDA EVFEMIZMLAR VA ULARNING QO'LLANISH DOIRASI**

Rahimov Fayziddin Rustamovich

**Page No.:50-53**

12

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MUSIQA MADANIYATI FANINING O'RNI**

Usmanova Xolida Abdusalyamovna

**Page No.:54-57**

13

**OLIY TA'LIM TIZIMINING AGRAR SOHASIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR QO'LLASH USTUVORLIGI**

Nizametdinov Ali Akramovich

**Page No.:58-60**



14

**PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL PREREQUISITES,  
ALLOWING TO IDENTIFY PEDAGOGY OF PHYSICAL EFFORT AND  
MOTOR ACTIVITY AS A SEPARATE DIRECTION IN PEDAGOGICAL  
SCIENCE**

Akhmedov M.B

**Page No.:61-64**

15

**PRONUNCIATION PROBLEMS OF STUDENTS AT LOCAL  
UNIVERSITIES IN UZBEKISTAN**

Akhmadjonov Avazbek

**Page No.:65-75**

16

**ADAPTATION OF PLANTS TO ADVERSE ENVIRONMENTAL  
CONDITIONS**

Tajiyeva L.Y.

**Page No.:76-78**

17

**MODERN PROBLEMS OF SPORTS MANAGEMENT DEVELOPMENT**

Xudayberganova L.U.

**Page No.:79-81**

18

**НЕМИС ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СИФАТ ЛЕКСЕМАЛАРНИНГ  
ФРАЗЕОЛОГИЗМДА РЕАЛЛАШУВИ**

Baymanov Habibullo Abdullayevich

**Page No.:82-85**

19

**ПЕТЕРБУРГСКИЕ СООБЩЕСТВА, В СОСТАВЕ КОТОРЫХ ЮНЫЙ  
АЛЕКСАНДР ПУШКИН**

Шайхисламова Рисолат,

Буранова Мадина Жасуровна

**Page No.:86-91**

20

**DAVLAT BOJXONA XIZMATI ORGANLARIDA KORRUPSIYANI  
OLDINI OLIISH BO‘YICHA TARG‘IBOT TADBIRLARINI TASHKIL  
ETISH MASALALARI**

Yuldashev Maksud Mamasoliyevich

**Page No.:92-95**

21

**OLIJ TA'LIM TIZIMIDA AGRAR SOHANING USTUVORLIGI UNDA INNOVATSIYALARNING QULLANISHI**

Nizametdinov Ali Akramovich

**Page No.:96-98**

22

**OLIJ TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION MENEJMENT**

To'ychiyeva Nodira G'ulom qizi,

**Page No.:99-102**

23

**OLIJ TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI**

To'ychiyeva Nodira G'ulom qizi,

**Page No.:103-105**

24

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARI**

Mahmudova Namuna

**Page No.:106-109**

25

**YOSHLARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH**

Ergashev Hamid O'ktam o'g'li

**Page No.:110-113**

26

**MAMLAKATIMIZ QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA SALBIY TA'SIR ETUVCHI OMILLAR**

Ochildiyeva Naima Mengziya qizi

**Page No.:114-116**

27

**THE CRITICAL PERIOD HYPOTHESIS AND ITS INFLUENCE ON SECOND LANGUAGE ACQUISITION**

Murodova Sevara

**Page No.:117-118**

28

**THE IMPACT OF THE ENVIRONMENTAL FACTOR ON GLOBAL ECONOMIC DEVELOPMENT**

Nurmurodova Rushana Badriddinovna

**Page No.:119-123**

29

**YANGI ASR ADABIYOTIDA XOSIYAT RUSTAMOVA SHE'RIYATINING O'RNI**

Xushnazarova Sevinch

**Page No.:124-128**

30

**XOSIYAT RUSTAMOVA SHE'RIYATINING YETAKCHI G'OYALARI**

Xushnazarova Sevinch

**Page No.:129-136**

31

**AQSh - XITTOY O'RTASIDAGI "SAVDO URUSHI" NING XALQARO MUNOSABATLARGA TA'SIRI**

Muxlisa Mamadaliyeva Alisher qizi

**Page No.:137-139**

32

**JIZZAX VILOYATIDA TARQALGAN *BUNIUM* TURKUM TURLARINING PLANTATSIYASINI YARATISH**

Doniyorova Shaxnoza Olimjon qizi

**Page No.:140-142**